

TUTDA FUZARIOZ KASALLIGI VA UNGA QARSHI SAMARALI KURASH CHORASINI QO‘LLASH.

Qambarova Muxtasar Xakimjanovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar
instituti “O‘simliklar karantini va himoyasi”
kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada respublikamiz qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan pillachilik va va uni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar haqida bayon qilingan . Pillachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash tut bargi hosilini oshirishni asosiy omilidir . Keyingi yillarda tutning kasalliklari tufayli urug‘ning unuvchanligi, ko‘chatlar nobud bo‘lishi, barg hosil miqdori pasayishi kuzatilmoqda. Tut daraxtining hosildorligini oshirishda serhosil navlarni etishtirish qulay agrotexnik tadbirlarni qo‘llash bilan birga uning kasalliklariga qarshi kurash choralarini ilmiy asosda ishlab chiqish zarur.

Kalit so‘zlar: kasallik, patogen, zamburug‘, bakteriya, fungitsid, zararkunanda, mikoplazma.

ФУЗАРИОЗ ТУТОВНИКА И ПРИМЕНЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ

Камбарова Мухтасар Хакимжановна.
Институт Андижанское сельское хозяйство
и агротехнологии старший преподаватель
кафедры «Карантин и защита растений»

Аннотация. В этом статье опубликован разведение тутового шелкопряда является одним из основных сельскохозяйственных районов нашей республики. Подъем листового листа зависит от укрепления кормовой базы шелководства. В последние годы из-за болезней огурца было замечено, что семена подвержены

болезням, потере рассады и снижению урожайности листьев. При выращивании высокопродуктивных сортов при выращивании тутового дерева необходимо разработать научные меры по борьбе с болезнью, а также применять благоприятные агротехнические мероприятия.

Ключевые слова: заболевание, патоген, грибок, бактерия, фунгицид, вредитель,

USE OF FUSARIOSIS DISEASE AND AN EFFECTIVE MEASURE TO CONTROL IT.

Kambarova Mukhtasar Khakimzhanovna
Andijan agriculture and agrotechnologies
Institute "Plant Quarantine and Protection"
senior teacher of the department

Annotation. The silkworm breeding is one of the main agricultural areas of our republic. Raising the leaf depends on the strengthening of the feeding base of the sericulture. In recent years, due to the diseases of the mulberry, it has been observed that the seeds are susceptible to disease, the loss of seedlings, and the decrease in leaf yield. While cultivating high yield varieties in cultivation of the mulberry tree, it is necessary to develop scientific measures to combat the disease, along with application of favorable agro-technical measures.

Key words: microorganisms, soil, plants, humus, actinomycetes, fungi, biochemistry, fertility, bacteria

Ipakka bo'lgan talab hozirgi kunda tibbiyotda, elektrotexnika, mudofaa va texnika sohasida ham muhim o'rin egallamoqda. Tut daraxtining bargi bilan bir qatorda uning mevasi, urug'i va tolasi xo'jalik jixatdan ahamiyatli hisoblanadi va tut mevasi qand moddasi va vitaminlarga juda boyligi bilan katta ahamiyatga ega. Tibbiyot bobokaloni Abu Ali ibn Sino tut mevasi shirasini og'iztomok illatlarini, shishlarni hamda chillashirni davolashda, peshob haydovchi omil sifatida qo'llagan. Pillasining g'umbagi esa mo'ynali hayvonlar uchun juda to'yimli

oziq hisoblanadi. Bir kg g'umbak mo'ynali hayvonlar uchun 2,5 kg go'sht o'rnini bosishi mumkin

Qishloq xo'jaligi kundan-kunga jadal rivojlanmoqda va ayni paytda respublikamizda pillachilikka juda katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 29 martdagi "O'zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarorini qabul qilinishi pillachilikni yanada rivojlantirishga asos bo'ldi. Qarorda tarmoq nufuzini oshirish uchun ozuqa bazasini jadal rivojlantirish, sifatli ipak qurti urug'i etishtirish tizimini keng yo'lga qo'yish, sanoatbop pilla xom ashyosi etishtirish va pillani qayta ishlash korxonalarining to'liq quvvat bilan ishlashini ta'minlash sohaning eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq tadbirlar belgilangan.

Ipakchilik qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, uning kelajakdagi rivojlanish darajasi ipak qurtining yagona va almashtirib bo'lmaydigan oziqa bazasi – tut daraxtining barg sifati va miqdoriga bog'liq. Tut daraxtining kasalliklari va zararkunandalari barg sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularni butunlay nobud qiladi.

Tut daraxtining kasalliklari zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar, mikoplazmalar, aktinomitsetlar tomonidan keltirib chiqariladi va ular zarari yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda tutda 100 dan ortiq kasalliklar aniqlangan, bu kasalliklarga qarshi kurash jarayonida ularga bevosita kimyoviy, biologik, fizikaviy va agrotexnik usullari qo'llanilmoqda..

Tut kasalliklari orasida eng ko'p tarqalgani fuzarioz bo'lib uni Fuzarium turkumiga oid zamburug'lar keltirib chiqaradi. Fuzarium turlari tuproqda havoda suv havzalarida o'simlik qoldiqlarida keng tarqalgan hayot kechirishi jihatidan turlicha bo'lgan o'simliklar gruppasidir. V.I.Bilayning (1977) fikricha bu zamburug'lar fakultativ fitoparazitlar va saprofitlardir. Respublikamiz sharoitida fuzarioz kasalligini sistemikasi tarqalishi va qarshi kurash choralari A.Sh.Sheraliev (1983) tomonidan tutning fuzarioz kasalligini o'rgangan. Uning bergan ma'lumotiga ko'ra, respublika bo'ylab o'tkazilgan kuzatishlar va mikologik

tekshirishlar natijasida fuzarioz zamburug'ining 10 turga va 13 ta tur xillari tutni kasallantiradi. Bu zamburug'lar kasallangan tut daraxtining bargidan, novdasidan, ildizidan va urug'idan ajratib olingan. Tekshirishlar tufayli tutdan *Fusarium solani*, *F. lateritium*, *F. oxysporum*, *F. gibbosum* turlari bilan kasallanganligi aniqlangan va unda namoyon bo'lgan kasallik Andijon viloyatidagi Ho'jaobod ipakchilik davlat xo'jaligida urug'dan ekilgan, payvandlangan va ko'p yillik tut daraxtlarining 10-35% fuzarioz bilan kasallantirgan. Urug'dan ungan ko'chatlar fuzarioz kasalligi bilan kasallanishi ko'chatlar unib chiqqandan 17-26 kun o'tgandan keyin amalga oshadi. Bunday ko'chatlarning urug' kurtak barglarida sarg'ish-jigar rangdagi dog'lar paydo bo'lib, ular qovjirab quriydi. Kasallik belgilari haqiqiy barglarda ham kuzatiladi, kasallangan barglar yuzasida dastlab sarg'ish dog'lar paydo bo'ladi va keyinchalik jigar rangga kiradi. Havo harorati ko'tarilgan vaqtda bunday barglar och yashil rangga kirib, so'liy boshlaydi, poyasi ko'ndalang kesilganda yog'ochlik qismi jigar rangda yoki qoramtir rangda ko'rinadi. Ma'lumotlarga ko'ra tutning fuzarioz kasalligini 10 dan ortiq turdagi *Fusarium* zamburug'lari keltirib chiqaradi. Kasallik tufayli 30-35% urug'dan ekilgan ko'chatlar, 40-45% payvandlangan ko'chatlar, 20-25% ko'p yillik tut daraxtlari nobud bo'ladi. Kasallik ko'chatlarning yotib qolishi, ildiz chirishi va so'lishi tarzida namoyon bo'ladi.

Tutzorlarda fuzarioz vilt kasalligining keng tarqalishiga asosiy sabab, tutzorlar orasiga g'o'za, poliz vasabzavot ekinlarini ekish natijasida infeksiyaning tuproqda to'planishi, kasallikka chidamli navlarni aniqlanmaganligi va qator oralaridagi tuproqqa ishlov berishda tut ildiz tizimini zararlanishidir. Viloyatimiz xo'jaliklarida pillachilikoziq fondini mustahkamlash va yaxshilashning asosiy tadbirlari quyidagilardan iborat: tutzorlarni kengaytirish, dala chetlariga, yo'l yoqalariga tut ko'chatlarini o'tqazish va ularni yaxshi parvarishlash tufayli barg hosilini ko'paytirish; o'g'it va mexanizatsiyadan samarali foydalanish asosida tut barglari tannarxini arzonlashtirish; tutzorlarni yaxshi navli tutlar qalamchasi va payvandlash yo'li bilan etishtirilgan serhosil ko'chatlardan tashkil qilish. Tutning

fuzarioz kasalligiga qarshi, urug'ni ekishdan oldin (uzgen,olgin) fungitsidlar bilan dorilanganda tajriba variantida 88.5% ko'chatlar soni saqlanib, kasal o'simliklar 5-10% ni tashkil qilgan, nazoratda bu ko'rsatkich muvofiq ravishda 64.2% va 25-36% ga teng bo'lgan (Sheraliev, 1989). Tutning fuzarioz kasalligiga qarshi, urug' bilan birgalikda tuproqda *Trichoderma lignorum* (shtamm 2398) biologik preparatini solish har gektar erdan olinadigan ko'chatlar sonini 100-135 mingtaga etkazib, kasal o'simliklarni 2,8 marotaba kamayishiga olib kelgan. Tuproqqa *Aspergillus terreus*, *Penicillium notatum*, *Trichothecium roseum* zamburug'larini urug' ekishdan oldin solish ham tutning fuzarioz kasalligiga qarshi yaxshi natija beradi degan xulosaga kelgan (Zuparov, 1984).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaev O'. Tutchilik Mehnat ,1991
2. Sheraliev A.Sh. Tutning fuzarioz kasalligi Toshkent 1992
3. Bilay V.I. Fizzorin Kiev Nauka Dumka 1997
4. Sheraliev A ., Axmedov N .,Sobirov S .Tut kasalliklari va zararkunandalari Toshkent 2009
- 5.Qambarova /M X. Nosirova Z G` Tutda fuzarioz kasalligi zarari va unga qarshi samarali kurash chorasini qo'llash UzACADEMIA ILMIY-USLUBIY JURNAL

02.2021y